

## O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR ORASIDA KASBIY KO‘NIKMALARNING SHAKLLANISHI

*Hudoberdi Boratov Xomidjonovich*

*Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani MMTB tasarrufidagi 26-umumiy o‘rta ta’lim  
mektebinining KHY psixologini*

### **ANNOTATSIYA**

Kasbga yo’naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashining ilmiyamaliy tizimi sifatida qaralishi lozim. Bunda har bir shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish, xalq xo‘jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat zahiralari bilan to’laqonli ta’minlash zarurati kabi omillarni e’tiborda tutish joizdir.

**Kalit so’zlar:** kasb, kasb tanlash, o’smir, niyat, qiziqish, qobiliyat.

### **KIRISH**

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o‘ta muhim bosqichi bo‘lajak kasbni tanlash, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo‘lgan davrini o‘z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog‘liq emas, u ma’lum yoshga kelib o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko‘nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta’siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Shaxsning ma’lum bir kasbni egallab, professional bo‘lib rivojlanishi kasbiy niyatlarining paydo bo‘lishi bilan vujudga keladi. Niyat insonning psixologik rivojlanishi jarayonida yuzaga keladigan yangi funksional shakllanishi bo‘lib, unda affektiv va intellektual komponentlar ajralmas birlikda namoyon bo‘ladi. Niyat – bu xatti-harakat va faoliyatni rejalashtirish va rivojlantirish funksiyasini bajaradigan ongli qaror. Bu qaror insonning xattiharakatlarini tartibga solib, uning ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi. Shaxs o‘zining shaxsiy xususiyatlarini aniq professional g‘oyalarini munosib baholashi kerak, bu ko‘p jihatdan kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Kasb tanlashning muvaffaqiyati asosan o‘quvchining psixologik tayyorgarligi bilan bog‘liq holda shaxsning kasbiy yo‘nalishini shakllantirish, mavjud qobiliyatlarni bilish, o‘zini o‘zi yetarli darajada baholash, intilishlarning real darajasi, barqaror kasbiy niyatlar va kasblardan yetarlicha xabardor bo‘lishdan iborat. Inson bolasi voyaga yetgach o‘z qiziqish va qobiliyatlariga ko‘ra biror kasb yoki hunarni tanlaydi. Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Chunki, kasbiy faoliyat uzoq vaqt davomida inson hayotining ajralmas qismiga aylanib qoladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Psixologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, odamlarning salomatligi hamda o‘zini baxtli his etish darajasi uning

tanlagan kasbi bilan uzviy bog‘liq ekan. O‘z kasbini ota – onalarning majburlashi orqali tanlagan insonlarda esa sog‘liqning yomonlashuvi, ruhiy tushkunlik, o‘zini baxtsiz his etish, kasbiy faoliyatida hech qanday o‘sish kuzatilmaganligidan dalolatdir. Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to‘g‘risida o‘ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qiladilar. Ayniqsa, maktabda beriladigan ta’limtarbiya o‘quvchining turli fanlarga bo‘lgan tanlovli munosabatini keltirib chiqaradi, ayrim bolalarda esa qaysidir fanlarga bo‘lgan qiziqishi tez seziladi, ya’ni tasviriy, musiqaviy va hokazolar. O‘smirlik davriga kelib, muammo yanada kuchayadi. Ko‘pgina o‘quvchilar va ota-onalarga qanday kasbni tanlashlari oldindan ma’lum bo‘ladi: ular “Men shifokor bo‘laman”, “Bizning o‘g‘limiz, qizimiz, tibbiyot insititutiga hujjat topshiradi”. Shunday bo‘lsada, kasbiy maqsadlarning aniqligi va ularni ruyobga chiqishi bo‘yicha xavotirlanish holatlari sezilib turadi.

Omdsizlikka uchrasa-chi? Ayrim o‘quvchilar uchun to‘qqizinchi sinfni bitirgach, kasbiy yo‘nalishlarni tanlash – eng dolzarb masala bo‘lib qoladi. Kasb tanlash bu o‘ziga yarasha murakkab jarayon bo‘lib, unda kasbni tanlashda ikkilanishlar, adashishlar, inqirozli jarayonlar yuz beradi. Kasb tanlash har doim bir xil darajada bo‘lmaydi. Bu insondagi ko‘pgina psixologik, fiziologik jarayonlar bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Biz har birimiz hayotimiz davomida bir necha marotaba “inkiroz” tushunchasini uchratamiz. Kundalik hayotimizda bu tushunchani biz ko‘plab ishlatamiz, ya’ni ishlab chiqarishdagi krizis davri, psixologik inkiroz va kasalning inkiroz davrlari haqida gapiramiz. Inkiroz haqidagi nazariya yaqinda paydo bo‘ldi

**Tahlil va natijalar.** Kasbiy shakllanish inqirozlarini ko‘rib chiqishdan oldin shaxsga doir turli inqirozlarni tahlil etamiz. Psixologiyada bolalik inqirozlar chuqur o‘rganilgan. Odatta hayotning birinchi yilidagi inqiroz 3 yoshdagi, 6-7 yoshdagi va 10-12 yoshdagi o‘smirlik inqirozlariga ajratiladi. Inqirozlar davomiyligi, shakli va ta’sir kuchi bolaning individual-psixologik xususiyatlaridan ko‘ra ijtimoiy sharoitlari, oilada tarbiya va pedagogik tizim xususiyatlariga ko‘ra inqirozlar sezilarli darajada farqlanadi. Bolalik inqirozlar bolalarning yangi yosh pog‘onaga o‘tish davrida paydo bo‘ladi va atrofidagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlar shakli shuningdek, jismoniy va psixologik imkoniyatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Negativlik, qaysarlik, erkalik yuqori darajadagi ziddiyatlilik holati bolalarning inqiroz davridagi xulqiy reaksiyalaridir.

O‘smirlik davri – bu birinchi ambivalent aptatsiya davri. O‘smirlik shaxs shakllanishining mas’uliyatli davrlaridan biridir. Bu yoshda har xil kasb turlariga ma’naviy munosabat asoslari, shaxsiy qadriyatlar tizimi shakllanadi. Ular o‘smirlarning turli kasblarga nisbatan tanlovli munosabatini belgilab beradi. Kattalar xulqining tashqi shakllariga taqlid etib, o‘smir bolalar kuchli, irodali, jasur bo‘lgan “Haqiqiy erkaklarning” romantik kasblarga qiziqishlarini yo‘naltiradilar (uchuvchi, kosmanavt, avtopaygachi, va h.k). Qizlar esa o‘z qiziqishlarini “haqiqiy ayollarga”

jozibali, go‘zal va mashhur ayollarga yo‘naltiradilar (mashhur estrada qo‘shiqchisi, teleboshlovchi, modeler, va h.k). romantik kasblarga yo‘nalishi ommaviy axborot vositalari ta’sirida shakllanadi. Bunday romantik kasbiy yo‘nalishning shakllanishiga shuningdek, o‘smirlarning o‘zini namoyon eta olishiga intilishi sabab bo‘ladi. Istalgan kasb namunalari, kasbiy orzular kasbiy shakllanishning psixologik bir bosqichi bo‘lib qoladi.

Erta yoshlik davri – bu davrning asosiy vazifasi kasb tanlash. Bu realistik aptatsiya davri hisoblanadi. O‘smirning kasbiy rejalari aniq ifodalanmagan, orzu shaklida bo‘ladi. U odatda o‘zini turli emotsiyal yoqimli bo‘lgan kasbiy rollarda tasavvur etadi, ammo kasb tanlash bo‘yicha biror xulosaga kelmagan bo‘ladi. Aslida esa o‘spirinlik davrining boshida umumta’lim maktabini bitirgan yigit qizlar oldida bu muammo paydo bo‘ladi. Bu taxminan katta yoshdagagi o‘smirlarning uchdan bir qismini tashkil etadi. Ulardan ayrimlari boshlang‘ich va o‘rtacha maxsus ta’lim yurtlariga, qolganlari mustaqil mehnat faoliyatini boshlashga majbur bo‘ladilar. 1415 yoshda kasb tanlash juda qiyin chunki kasbiy maqsadlar aniqlanmagan bo‘ladi.

Kasbiy yo‘nalgan orzular va romantik intilishlarni aslida ro‘yobga chiqarib bo‘lmaydi. Real boshlangan kelajakdan qoniqmaslik refleksiyasining ya’ni shaxsiy “men”ni anglashni rivojlanishiga olib keladi (kim men? mening qobiliyatlarim qay darajada? men kim bo‘lmoqchiman? kimga o‘xshagim keladi?) va boshqalar.

Kasb-hunar o‘quv yurtlarida kasbiy ta’lim oluvchilar kasb jihatdan o‘zlarini anglay oladigan bo‘lishlari kerak. Ammo statistika ma’lumotlariga ko‘ra kasb-hunar o‘quv yurtidagi tanlov psixologik jihatdan asoslanmagan. Shunday qilib, katta yoshdagagi o‘smirlar uchun o‘quv yurtidagi kasbiy o‘zini o‘zi anglash kasbiy ta’lim va kasbiy tayyorgarlik yo‘llarini anglangan tanlovi hisoblanadi. 9-sinfdan boshlab astasekin o‘zingiz tanlagan yo‘nalish bilan tanishish maqsadida institut va universitetlardagi «Ochiq eshiklar» kunlarida ishtirok etish maqsadga muvofiq.

**Tahlil va natijalar.** Ota-onanidan beriladigan maslahatlar foydali, lekin ular yakuniy qaror bo‘lmasligi, yordamchi ta’sirga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Yoki ota - ona o‘z yoshligida egallay olmagan, armon bo‘lib qolgan kasbga farzandini yo‘naltirishi ham noto‘g‘ri. Farzand – alohida shaxs va uning o‘z istaklari bor. Bu istaklar avvalroq armon bo‘lgan xohishlar uchun qurban bo‘lmasligi kerak. Farzand onasi yoki otasining kasbini davom ettirmoqchi bo‘lsa, bu juda yaxshi. Lekin bunga uni majburlash noto‘g‘ri. Otaning shu kasbda o‘z baxti va muvaffaqiyatini topgani o‘g‘ilda ham xuddi shu ssenariy takrorlanadi degani emas.

– Sizni yaqindan biluvchi insonlar – oila a’zolaringiz, do‘srlaringiz bilan maslahatlashgan holda, o‘zingizga qaysi kasb ko‘proq mos kelishi haqida so‘rab olishingiz mumkin.

- Ommaviy axborot vositalari yangi kasb sohalari haqida ko‘proq ma'lumot olishga yordam beradi. Maxsus manbalar (adabiyotlar, onlayn platformalar) talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar haqida ma'lumotlar beradi.
- Istaklaringiz va hayotdagи maqsadlaringizdan kelib chiqing.
- To‘plagan ma'lumotlaringizni chuqur tahlil qiling. «Hayotda menga nima kerak?» degan savolga javob berishga harakat qiling.
- Imkoniyat bo‘lsa, kasb tanlash bo‘yicha malakali mutaxassis bilan maslahatlashish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, o`smirlarda kasbiy niyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari va ularning kasbga bo‘lgan munosabatlarini rivojlantirish uchun kasb ko‘nikmalarini shakllantirish asoslari, kasb tanlashga yo’llash sistemasining bosqichlari va kasb tanlashda asosiy mezonlarga e’tibor berish maqsadga muvofiqdир.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Журакулова Д.З. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчилар фаолияти. Journal of Advaced Research and Stability 381-384 pages
2. Журакулова Д.З. Шарқ мутаффаккирлари асарларида сахийлик ва хасислик муаммоси//Шахсда илмий дунёқарааш ривожланишининг психологик имкониятлари ва тарбиявий жиҳатлари: Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2019. – Б.248 -8252.
3. Журакулова Д.З. Психологическое особенности психопрофилактики жадности // Психология. – Бухоро, 2019. – №3. – Б. 113-115.
4. (19.00.00. №5)
5. Rahmonova N.A. EMOTIONAL STSTES OF THE PERSON Conferencea, 190-6. 192.
7. Rahmonova N.A. O’SMIRLIK DAVRIDA EMOTSIONAL HOLATLAR
8. TURLARI World scientific research journal 2 (1), 105-109.